

Is Gazidan Zaharlanishning Umumiy Belgilari Va Birinchi Yordam Ko'rsatish

Nizamova Dilrabo Odilovna¹, Abdikarimova Aynura Abay qizi²

Annotatsiya: Bu maqolada is gazidan zaharlanish va inson organizmida is gazining saqlanishi to'g'risida ma'lumot berilgan. Uning umumiy belgilari, qanday holatda is gazidan zaharlanish xavfi yuqori bo'lishi va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish to'grisida maqolada ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Is gazi, karboksigemoglobin, yengil darajada zaharlanish, o'rtacha darajada zaharlanish, og'ir zaharlanish, zaharlanishning umumiy belgilari.

Is gazidan zaharlanish-inson organizmiga is gazi kirishi oqibatida rivojlanadigan o'tkir patologik holat bo'lib, hayot va salomatlik uchun xavflidir va malakali tibbiy yordamsiz o'limga olib kelishi mumkin. Is gazi atmosfera havosiga barcha turdagi yonish jarayonlarida ajralib chiqadi. Shaharlarda shuningdek asosan ichki yonuv dvigatellaridan chiqadigan gazlar orqali. Is gazi qondagi gemoglobin bilan faol bog'lanib, karboksigemoglobin hosil qiladi va to'qimalarga kislorod tashishni bloklab qo'yadi, bu esa gemik turdagi gipoksiyaga olib keladi. Shuningdek oksidlanish reaksiyalariga aralashib, to'qimalarda biokimyoviy muvozanatni buzadi.

Is gazining inson organizmida saqlanishi to'g'risida turli fikrlar bor. Ulardan birining ko'rsatishicha, is gazi uzoq vaqtgacha organizmida saqlanadi, boshqa bir fikrga ko'ra, uni 25-40 soatdan so'ng aniqlab bo'lmaydi. Uy va korxonada havosida 0,07-0,08% is gazi bo'lishi hayot uchun xavflidir. Uning havodagi ruxsat etilgan konsentratsiyasi 0,02 mg/l ga teng.

Aslini olganda is gazi hidsiz bo'ladi. Shuning uchun undan zaharlanish vaqtida odam avval hech narsani sezmasligi mumkin. Lekin bilish lozimki, havo tarkibida is gazi 0,08 foizni tashkil etsa va bu havoni ichga yutgan odam o'sha zahoti bosh og'rig'i va bo'g'ilishdan qiynaladi. Is gazi miqdori 0,32 foiz bo'lganda falajlanish va hushdan ketish alomatlari kuzatiladi. Havoda bunday gaz miqdori 1,2 foizga yetganda esa odam bu havodan atigi 2-3 marotaba nafas olgandayoq hayoti fojeali tugashi mumkin. Aynan mana shu sabablar tufayli ham is gazidan zaharlanish o'ta xavfli hisoblanadi.

Is gazidan zaharlanishning umumiy belgilari:

- **Bosh miya tizimida:** uyquga tortish, bosh aylanishi, bosh og'rig'i, hushini yo'qotish;
- **Ko'rish tizimida:** ko'z oldining qorong'ulashishi;
- **Eshitish tizimida:** eshitish qobiliyatining pasayishi;
- **Nafas olish tizimida:** nafas olishning og'irlashishi, yo'tal;
- **Yurak qismida:** puls va AB ortishi;
- **Mushaklar tizimida:** tremor (qaltirash);
- Qanday holatlarda is gazidan zaharlanish xavfi yuqori bo'ladi?
- Shamollatish tizimi yaxshi ishlamaydigan organik moddalarni ishlab chiqaradigan korxonalarda;
- Avtoulavlar turargohlarida;
- Yangi bo'yalgan va shamollatilmagan xonalarda;
- Uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda;

¹ Toshkent davlat texnika universiteti "Hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasida dotsenti

² Toshkent davlat texnika universiteti "Muhandislik texnologiyalari fakulteti" talabasi



- Pechka bilan isitiladigan uylar, hammomlar, dam olish palatkalarida yonuvchi moddaning to'liq yonmasligi natijasida zaharlanib qolish mumkin.

DARAJASI BO'YICHA

Yengil zaharlanish paydo bo'lganda:

- Bosh og'rig'i;
- Peshonalarning ikki cheti lo'qillashi;
- Bosh aylanishi;
- Ko'krakda og'riqlar;
- Quruq yo'tal;
- Ko'z yoshlanishi;
- Ko'ngil aynishi;
- Qusish;
- Eshitish va ko'rishning buzilishlari ehtimoli mavjud;
- Terining qizarishi, shilliq qavat rangining o'ziga xos qizil bo'lishi;
- Qon bosimining oshishi.

O'rtacha darajada zaharlanish uchun:

- Quloqlarda kuchli shovqin;
- Uyquchanlik;
- Hushi o'zida bo'lishi bilan falajlik kuzatilishi mumkin.

Og'ir zaharlanishda:

- Hushning yo'qolishi;
- Beixtiyor siydik va nafas chiqarish;
- Uzluksiz bo'lib qoladigan nafas olish buzilishi;
- Ko'z qorachig'ining yorug'likka javob beruvchi reaksiyasining zaiflashishi;
- Shilliq qavat va yuz terisining Keskin ko'karishi. O'lim odatda nafas to'xtashi va yurak faoliyatining pasayib ketishi natijasida zaharlanish joyidayoq sodir bo'ladi.

Barcha holatdagi og'ir zaharlanishlarda zudlik bilan tez tibbiy yordam chaqirish zarur. Shifokor yetib kelgunga qadar quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- Jabrlanuvchini zudlik bilan gazlangan hududdan toza havoga olib chiqish kerak;
- Jabrlanuvchining qo'l va oyoqlarini ko'tarilgan holatda yotqizish;
- Nafas olishiga xalaqit beruvchi barcha narsalarni yig'ishtirish (tugmalarni yechib, yoqani ochish, kamarni bo'shatish va boshqalar);
- Jabrlanuvchining uxlab qolmasligini nazorat qilish. Jabrlanuvchini yurgizish taqiqlanadi;
- Jabrlanuvchi nafas olmayotgan bo'lsa, unga toza havoda yoki havosi yaxshi aylanadigan xonada sun'iy nafas oldirishni boshlash lozim;
- Nashatir spirtini hidlatish;
- Hushiga kelgan vaqtida yiqilib, jarohatlanmasligi uchun choralar ko'rish;
- Jabrlanuvchining holati yaxshi bo'lsa, issiq choy va qahva ichirish;



➤ Kislrod yostig'i yordamida kislrod berish.

Ta'kidlash kerakki, is gazidan zaharlangan kishiga albatta dastlabki yordamni ko'rsatish lozim. Avvalo zaharlangan odamni toza havoga olib chiqish kerak. Bordiyu u hushini yo'qotmagan bo'lsa, tinchlik va hotirjamligini ta'minlab, biror narsa bilan tinimsiz yelpib turish kerak. Maboda hushsiz bo'lsa, yurak sohasini tez-tez massaj qilib "Tez yordam" yetib kelgunicha sun'iy nafas berilishi kerak.

Yodingizda bo'lsin, is gazidan zaharlangan kishini biror hududdan olib chiqayotganda o'zingiz ham zaharlanib qolmaslikka harakat qiling. Buning uchun burningizni ro'molcha yoki doka bilan bog'lab olganingiz ma'qul.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. L.T.Ikromov, T. Mirxaitov, M.A.Tojiyev, Z.A.Yuldashev. Toksikologik kimyo (Darslik). T.: "Effect-D"-2021.
2. <https://avitsenna.uz>
3. <https://mymedic.uz>
4. <https://hududgaz.uz>

